Nazimov Alim Turg'unbayevich
Namangan davlat universiteti Jismoniy madaniyat kafedrasi katta o'qituvchisi

TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARINING TAHLILIY KO'RSATKICHLARI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.7952017

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizdagi faoliyat olib borayotgan ta'lim muassasalari reytingida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining tahliliy ko'rsatkichlari, dolzarb muammolar va shart-sharoitlar haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, sport, sport mashg'ulotlari, sport ta'lim muassasalari

KIRISH

Yurt kelajagi bo'lgan yoshlarni vatanparvar, mamlakat taraqqiyotiga dahldor, ijtimoiy mas'uliyatli qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shu jihatdan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, bu sohadagi mavjud muammolarni ta'lim muassasalarining faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish hamda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini raqobatbardosh kadrlar qilib tayyorlash, asosiy vazifalarimizdan biridir.

Barchamizga ma'lumki ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish sog'lom turmush tarziga, kasbiy qobiliyatlarini oshirishga, umrni uzaytirish, talaba-yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ularda yuksak vatanparvarlik hamda irodaviy sifatlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-3031-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 17 fevraldagi "Sport -ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori jamiyatimizda jismoniy tarbiya va sportni hamda bunda sport ta'lim muassasalarining rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Sport ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan sportchi yoshlarni yoshligidanoq sport turlarining muammolari, kamchiliklari va sir-asrorlarini egallab, o'z mutaxassisliklarining haqiqiy egalari bo'lib yetishib chiqishini ta'minlash jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vaziflaridan hisoblanadi. Bu borada sport taraqqiyotining bugungi bosqichida biz shunday xususiyatlarni ko'ramizki, murabbiy bilan sportchi oldiga yangidan-yangi murakkab vazifa va topshiriqlar paydo bo'lmoqda. Bu vazifa va topshiriqlarni bajarish sport ta'lim muassasalarida mashg'ulotlar jarayonini tashkil qilishning yangi usullarini izlab topishga majbur qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Respublikamiz hamda xorijda jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, olimlarimizdan T.Usmanxodjaev, R.Xalmu-xamedov, R.Salamov, Sh.Xankeldiyev, F.Kerimov, A.Abdiyev, M.S.Axmatovlar sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sport muassasalarini rivojlantirib borish muhim deb hisoblashgan.

Xorijlik L.P.Matveev, Yu.V.Verxoshanskiy, M.A.Godik, V.N.Platonovlar jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish masalalari doirasida sport zaxiralarini shakllantiirb borish zururligini ta'kidlashgan bo'lsa, G.Meyzinskaya, V.I.Noviskaya, O.A.Barabash, A.M.Lebedins-kiylar jismoniy tarbiya va sport sohasida ta'lim samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Mazkur tadqiqotlarda jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarini rivojlantirish, malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalari

faoliyatini takomillashtirish masalalariga umumiy yondashilgan.

Tadqiqot ishi davomida ilmiy-uslubiy tahlil, pedagogik kuzatuv va matematik-statistik metodlardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Chunki, sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptiradi. Shuningdek, sport – yuksak madaniyat hamda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitibgina qolmasdan, barcha yurtdoshlarimizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining 2019 yil ma’lumotlari [3] bo‘yicha hozirda ta’lim muassasalaridagi sport inshootlari jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanish imkoniyatini beradigan asosiy vositadir.

O‘zbekiston Respublikasida 2019-yil yakuniga ko‘ra jami 51651 ta sport inshootlari mavjud bo‘lib, shundan 27591 ta (53,4 %)si qishloq joylarida tashkil etilgan bo‘lsa, 24060 ta (46,6 %) si shahar joylarida joylashgan. Shuningdek, jami sport inshootlarining bir kunlik quvvati 2136,8 ming kishini, qishloq joylarida 1036,9 ming (48,5 %) kishini tashkil etsa, shahar joylarida esa 1099,9 ming kishiga teng. Jismoniy tarbiya va sport klublari soni jami 12282 tani tashkil etib, ulardan 60 % i (7328 tasi) qishloq joylari va 40 % i (4954 tasi) shahar joylari ulushiga to‘g‘ri keladi.

Sport inshootlarining hududlar kesimidagi statistik tahlilidan ko‘rish mumkinki, sport inshootlarining soni jihatidan eng ko‘p qismi Farg‘onada – 5772 ta, Samarqandda – 5555 ta va Qashqadaryoda – 5131 ta barpo etilgan bo‘lsa, eng kam qismi Sirdaryoda – 1559 ta, Navoiyda – 1788 ta, Toshkent shahrida – 2191 ta joylashgan. Bu tahlillardan ko‘rishimiz mumkinki, Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida sport inshootlarini aholi sonining oshib borishiga mos ravishda ko‘paytirish lozim (1-diagramma).



1-diagramma. Mavjud ta’lim muassasalaridagi sport inshootlari soni, birlikda (2019 yil bo‘yicha).

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchilar soni jami 6631,1 ming nafarni tashkil etib, ulardan, 6114,5 kishi umumta’lim muassasalari,72,9 ming kishi akademik litseylar, 239,5 ming kishi kasb-hunar kollejlari hamda 204,2 ming kishi oliy ta’lim muassasalari ulushiga to‘g‘ri kelgan [3]. Bu tahlil natijalariga e’tibor qilsak, ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish ko‘rsatkichlari umumta’lim maktablaridagina yuqori, eng kam ko‘rsatkich akademik litseylar va Oliy ta’lim muassasalarida qayd etilgan. Kasb-hunar kollejlarida ham ko‘rsatkichlar yuqori emas. Bu natijalar albatta mutaxassislik, yo‘nalishlar va o‘quv jarayonlari xususiyatidan kelib chiqqan holda qayd etilgan. Natijalarni ko‘tarish uchun ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishga ajratilgan soatlar miqdorini oshirish birinchi navbatdagi masala hisoblanadi. Jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchilarning boshqa ta’lim muassasalariga nisbatan eng ko‘p qismi umumta’lim muassasalari (92,2 %) ko‘rsatkichiga tegishli (1-jadval).

Mavjud sport seksiyalari va bo‘limlarida darsdan hamda ishdan tashqari sport bilan shug‘ullanayotganlar jami 2727,4 ming kishiga teng bo‘lib, shundan 1074,0 ming kishi (39,4 %)ni qizlar (ayollar), 1653,4 ming kishi (60,6 %)ni o‘g‘il bolalar (erkaklar) tashkil

etadi. Sport seksiyasi va bo‘limlarida darsdan hamda ishdan tashqari sport bilan shug‘ullanayotganlarning umumiy soniga nisbatan 47,2 % i (1287,1 ming kishi) qishloq joylariga to‘g‘ri kelsa, 52,8 % i (1440,3 ming kishi) shahar joylari ulushiga teng [3].

Jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchilar 6631,1 ming kishi	
Umumta’lim muassasalarida	92,2 %
Akademik litseylarda	1,1 %
Kasb-hunar kollejlarida	3,6 %
Oliy ta’lim muassasalarida	3,1 %

Bundan ko‘rinib turibdiki, darsdan va ishdan bo‘sh vaqtlarida sport bilan shug‘ullanayotgan orasida erkaklar ulushi ayollarga qaraganda 21,2 % ko‘proqni tashkil qilgan, bulardan shahar joylarida shug‘ullanyotganlar qishloqda shug‘ullanayotganlardan 5,6 % ko‘p ekan.

Sport inshootlari turlarining statistik tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2019 yilda mamlakatimizda jami 51651 ta sport inshootlari mavjud bo‘lib, ulardan, stadionlar – 417 ta (0,8 %), sport zallari – 10863 ta (21,0 %), suzish basseynlari – 316 ta (0,6 %), otish tirlari - 142 ta (0,3 %), sport maydoncha va maydonlari - 39841 ta (77,1 %), otchoparlar - 8 ta (0,01%), manejlar - 24 ta (0,05%) hamda o‘q otish va stendga otish joylari - 40 ta (0,08%)ni tashkil etgan [3] (2-diagramma).



2019 yilda jami 331 ta sport-ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, shundan 311 ta (94 %)si shahar joylarida joylashgan bo‘lsa, 20 ta (6 %)si qishloq joylari ulushiga to‘g‘ri keladi. Faoliyat olib borayotgan sport -ta’lim muassasalarining turlari bo‘yicha statistik tahlilidan ko‘rish mumkinki, bolalar va o‘smirlar sport maktablari soni 230 ta, ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar sport maktablari soni 54 ta, Olimpiya zahiralari kollejlari soni 15 ta, ixtisoslashtirilgan maktab internatlari soni 15 ta, Oliy sport maqorati maktablari soni 12 ta hamda Olimpiya zahiralari ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar sport maktablari soni 5 tani tashkil etgan.

Hozirgi kunda ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, sport mashqlariga bo‘lgan ko‘nikmalarini oshirish uchun bir yilda bir marta “Alpomish” va “Barchinoy” testlari o‘tkazilib turiladi. “Alpomish” va “Barchinoy” testlarini topshirganlarning umumiy soni 4824,4 ming kishini tashkil etadi, ulardan 2294,8 ming nafari “Barchinoy” testlarini topshirgan. Ularning 13,5 % i Farg‘ona viloyatida, 10,9 % i Samarqand viloyatida va 10,6 % i Namangan viloyatida, shu bilan birga, Andijon viloyatida - 3,2 %, Sirdaryo viloyatida - 3,6 %, Navoiy viloyatida - 3,7 %.

“Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlarining maqsadi aholining barcha qatlamlari o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish orqali ularni jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, jismoniy qobiliyati va harakat faolligini takomillashtirish, jismoniy va ruhiy barkamollikka erishtirish, mehnatga layoqatini oshirish, zararli odatlar hamda turli kasalliklarning oldini olish va sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish, sport musobaqalari orqali yoshlarda iroda, o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonch kabi fazilatlarni mustahkamlashdan iborat. “Alpomish” testi erkaklar uchun, “Barchinoy” - ayollar uchun mo‘ljallangan [4].

Sport-ta’lim muassasalari ishining asosiy ko‘rsatkichlari tahlilidan ko‘rinadiki, 2019 yilda respublikamizda jami guruh (seksiya) lar soni 24,0 mingtani tashkil etgan. Undagi shug‘ullanuvchilar soni esa, 404,4 ming kishi

bo‘lib, shundan 25,3 % i (102,4 ming kishi) ayollarni tashkil etadi. Hududlar bo‘yicha statistik tahlil qilinganida, guruh (seksiya)lar sonining eng yuqori ulushi 18,8 % Buxoro va 12,2 % Andijon viloyatlariga, eng kam ulush esa 1,0 % Qashqadaryo va 1,2 % Sirdaryo viloyatlariga to‘g‘ri kelmoqda.

Guruh (seksiya)larda Olimpiya sport turlari bo‘yicha shug‘ullanuvchilar soni jami 404,4 ming kishini tashkil etgan. Shundan, suzish sport turi bo‘yicha shug‘ullanuvchilar 10827 kishi, basketbol – 14325 kishi, erkin kurash – 13203 kishi, yengil atletika – 15192 kishi, stol tennisi – 20923 kishi, voleybol – 27511 kishi, badiiy gimnastika – 27661 kishi, futbol – 42396 kishi va boshqa sport turlarida – 232,4 ming kishini tashkil etadi.

2019 yilda guruh (seksiya)larda Milliy sport turlari bo‘yicha shug‘ullanuvchilar soni jami 49,1 ming kishidan iborat bo‘lib, ulardan 59,6 foizi (29,3 ming kishi) kurash sport turi, 17,9 % i (8,8 ming kishi) belbog‘li kurash, 12,2 % i (5,9 ming kishi) o‘zbek jang san’ati hamda 10,2 % i (5,1 ming kishi) turon sport turi bilan shug‘ullanuvchilar hisoblanadi [3].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, respublikamizdagi ta’lim muassasalari reytingida jismoniy tarbiya va sport inshootlari, jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanyotganlar, mavjud sport seksiyalari va bo‘limlarida darsdan hamda ishdan tashqari sport bilan shug‘ullanayotganlar, trenerlar salohiyati kabi ko‘rsatkichlar asosiy o‘rinni egallaydi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi rivojida sport ta’lim muassasalari asosiy lokomativ vazifasini bajaradi. Ularning faoliyatlarini sport ta’lim muassasalari orasida integratsion jarayonlarni kuchaytirish, sport ta’lim muassasalari o‘quv-metodik bazasini mustahkamlash, sport ta’lim muassasalari o‘qituvchi-murabbiylarining pedagogik kompetentlik xususiyatlarini yanada oshirish, sport ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari orasida seleksiya ishlarini amalga oshirishda xorijiy tajribadan foydalanish metodikasini joriy qilish kabi mezonlar asosida takomillashtirishi zarurdir.

Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro standartlar asosida tarbiyalanadigan mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish, ilmiy-pedagogik salohiyatni oshirish, o‘quv jarayonining ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan uzviy bog‘liqligini kuchaytirish, o‘quv-uslubiy va axborot ta’minotini yaxshilashda xorijning ilg‘or sport ta’lim muassasalari tajribasini inobatga olgan holda o‘quv rejalariga zamonaviy fanlarni kiritib borish, innovatsion hamda ilm-fanga asoslangan texnologiyalarni tadbiq qilish, jismoniy tarbiya va sport sohasida fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish, kadrlar buyurtmachisi bo‘lgan tegishli muassasa va tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish bugungi kunning asosiy talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3 июндаги “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш тўғрисида”ги ПҚ-3031-сонли қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 17 февралдаги “Спорт-таълим муассасалари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 90-сонли қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг ахборотномаси. Тошкент, 2020 йил.

4. Саломов Р.С. Жисмоний тарбия назарияси ва услубияти. Дарслик. Т.:ИТА-ПРЕСС нашриёти, 2014. – 269 бет.

Kerimov F.A. Sportda ilmiy tadqiqotlar. – T.: Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti, 2018. – 348 bet.

5. Халмухамедов Р.Д. “Бокс”. Ўқув қўлланма. Тошкент 2008.

Назимов Алим Тургунбаевич
Старший преподаватель кафедры физической культуры
Наманганского государственного университета

АНАЛИТИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ ФИЗКУЛЬТУРНО-СПОРТИВНОЙ ПОДГОТОВКИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация. В данной статье описаны аналитические показатели, современные проблемы и условия физкультурно-спортивной подготовки в рейтинге образовательных учреждений, действующих в нашей стране.

Ключевые слова: физическое воспитание, спорт, спортивная подготовка, спортивные образовательные учреждения.

Nazimov Alim Turgunbayevich
Senior teacher of the Department of Physical Culture of Namangan State University

ANALYTICAL INDICATORS OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS TRAINING IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation. This article describes the analytical indicators, current problems and conditions of physical education and sports training in the ranking of educational institutions operating in our country.

Key words: physical education, sports, sports training, sports educational institutions